



## ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY VA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL METODLAR

**Mohinur Pulatova Rustamjon qizi**

*Kattaqo'rg'on davlat instituti 3-bosqich talabasi*

*E-mail: [mohinurpulatova12@gmail.com](mailto:mohinurpulatova12@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ona tili darslarida o'quvchining yozma va og'zaki savodxonligini shakllantirish bilan bir qatorda ijodiy fikrlashga o'rgatish va darslar orqali ijodkor yoshlarni qo'llab quvvatlashga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, ularda ijodkorlikni uyg'otish va rivojlantirish usullariga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** metodika, ona tili, "Suratdagi tasvirni jonlantir", "Kim shoir", "Mantiqni ishlat", "Tilsiz sarlavha", psixologiya, ijodkorlikni o'stirish, "Aql xaritasi", "SCAMPER", "Oltita fikrlash shlyapasi".

**Аннотация.** Данная статья посвящена формированию письменной и устной грамотности учащихся на уроках родного языка, а также обучению творческому мышлению и поддержке творческой молодежи посредством уроков. Кроме того, рассматриваются методы пробуждения и развития креативности.

**Ключевые слова:** методология, родной язык, «Оживи образ на фотографии», «Кто такой поэт?», «Используй логику», «Название без языка», психология, развитие креативности, «Интеллектуальная карта», «SCAMPER», «Шесть шляп мышления».

**Annotation.** This article focuses on the formation of written and oral literacy of students in the lessons of the Mother Tongue, as well as on teaching creative thinking and supporting creative youth through lessons. In addition, they touch on methods for awakening and developing creativity.

**Key words:** methodology, mother tongue, "Revive the image in the photo", "Who is the poet", "Use logic", "Title without language", psychology, developing creativity, "Mind map", "SCAMPER", "Six thinking hats".

### KIRISH

Bugungi kunda dunyo sahnida turli sohalar qatori ta'lim tizimida ham islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida, yoshlar uchun berilayotgan imkoniyatlarning yaqqol namunasi hisoblanadi. Kelajak avlod vakillariga ta'lim va tarbiya berish, ma'lum kasbga yo'naltirish, hamda imkoniyatlarini rag'batlantirish, har bir malakali pedagogning zimmasiga yuklatilgan asosiy burch sanaladi. Darhaqiqat, Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlagani kabi "Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan



chambarchas bog‘liq”. Haqiqatdan ham hozirgi tahlikali davrda ularni ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, qadimiy va navqiron yurtimizning boy tarixini asrash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda kasbga, oilaga, vatanga, bo‘lgan mas’uliyat hissini uyg‘otishimiz zarur. Bundan tashqari Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Zahriddin Muhammad Bobur, Cho‘lpon, Oybek, O‘tkir Hoshimov, va Said Ahmad, kabi buyuk insonlar avlodi bo‘lmish o‘g‘il-qizlarda bobokalonlarimiz faoliyati va ijodiga bo‘lgan hurmat hissini uyg‘otish va ular izidan borishi uchun ta’limda, ona tili darslari orqali erishish maqsadga muvofiq. Bunga ko‘ra, ona tili darslarida yozma va og‘zaki savodxonlikni oshirish barobarida o‘quvchilarda ijodiy va mantiqiy bilimlarni uyg‘otish va sinovdan o‘tkazish muhim deya qaralmoqda. Ijodiy fikrlash – bu yangi g‘oyalarni ilgari surish, mavjud bo‘lgan bilimlarni yangicha tarzda qo‘llay olish, noan’anaviy yondashuvni qo‘llab-quvvatlash qobiliyatidir. Bu jarayon inson tafakkurining eng yuqori bosqichini ifodalaydi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali o‘quvchilarda faollik, muammolarga boshqacha qarash, o‘z ustida ishlash va tanqidiy tahlil qilish kabi muhim sifatlar shakllanadi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarning ongi sezgir, tafakkuri esa moslashuvchan bo‘lgani sababli, bu bosqichda ijodiy fikrlashni rivojlantirish alohida o‘rin tutadi.

### **METODOLOGIYA**

Ushbu maqolaning yozish jarayonida xalqaro metodlarga ham ahamiyat qaratildi. Bir guruh siyosatchi, psixolog va ta’lim sohasida ko‘pgina g‘oyalar asoschilaridan Bob Eberle, Tong Buzgan, Edvard de Bonolarning eng sara izlanishlari namunalari ko‘rib chiqildi va tahlilga tortildi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

O‘rganishlar jarayonida, tadqiqot obyekti sifatida olingan xalqaro metodlardagi alohidalik, izchillik, doirasidagi yutuqlar amaliyot jarayonida qanday qo‘llash mumkinligi aniqlandi. Quyidagi metodlarda ahamiyat qaratilmagan jihatlari to‘planib yangi metodlar ishlab chiqildi va amaliyotga qo‘llash yuzasidan chora-tadbirlar yaratildi.

### **Interfaol metodlar tahlili**

Ona tili darslarida o‘quvchilarda kreativlikni o‘stirish uchun dunyoning top o‘quv yurtlarda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlardan foydalanish samarali deb qaralmoqda. Innovative Publication tadqiqotlari va ScienceBox.uz materiallariga ko‘ra, guruhlarda ishlash uchun “Aqliy hujum”, “Klaster” va “Sinkveyn” kabi usullar o‘quvchilarning faolligini oshirish bilan birga guruh bo‘lib ishlash orqali hamkorlikni oshirishga yo‘naltirilgan. **SCAMPER technique** metodi orqali bo‘lsa mavjud g‘oyani o‘zgartirib, yangi yechimlar topishga yordam beradi.



Bu metod asoschisi Amerikalik siyosatchi Bob Eberle tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, **SCAMPER** atamasini to‘laqonli izohlaydigan bo‘lsak,

**Substitute** (almashtirish)

**Combine** (birlashtirish)

**Adapt** (moslashtirish)

**Modify** (o‘zgartirish)

**Put to another use** (boshqa maqsadda ishlatish)

**Eliminate** (olib tashlash)

**Reverse** (teskari qilish) kabi ma’noni anglatadi.

Britaniyalik mashhur psixolog, ta’lim maslahatchisi Tony Buzan esa o‘quvchilar ongidagi g‘oyalarni rivojlantirish uchun Ming Mapping metodi ustida ish olib borgan. **Mind Mapping (Aqliy xarita)** markaziy g‘oyadan boshlab, unga bog‘liq fikrlarni tarmoqlantiradi, vizual fikrlashni rivojlantiradi, murakkab muammolarni soddalashtiradi fanlar integratsiyasi o‘laroq ona tili darslarida mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

**Six Thinking Hats** Britaniyalik psixolog Edvard de Bono tomonidan o‘ylab topilgan. Six Thinks Hats (6 ta fikrlash qalpoqchasi) metodi. Bunda har bir rangdagi qalpoqlar o‘z vazifasiga ega.

**Oq** qalpoqcha (Faktlar): Faqat mavzuga doir ma’lumotlar, raqamlar va faktlarga e’tibor qaratiladi.

**Qizil** qalpoqcha (Hissiyotlar): Intuitsiya, his-tuyg‘ular va munosabat ifodalanadi, mantiqiy asoslash talab etilmaydi.

**Qora** qalpoqcha (Tanqid): Xavf-xatarlar, salbiy tomonlar va nima uchun g‘oya ishlamasligi tahlil qilinadi.

**Sariq** qalpoqcha (Optimizm): G‘oyaning ijobiy tomonlari, foydasi va afzalliklari qidiriladi.

**Yashil** qalpoqcha (Kreativlik): Yangi g‘oyalar, muqobil yechimlar va ijodiy yondashuvlar o‘rtaga tashlanadi.

**Ko‘k** qalpoqcha (Boshqaruv): Muhokama jarayonini nazorat qiladi, maqsadni belgilaydi va xulosalar chiqaradi. Ona tili darslarida qo‘llashning afzallik tomoni shundaki, muammoni har tomonlama tahlil qilish imkonini berish bilan birga nizolarni kamaytiradi, fikrlar qarama-qarshiligini yo‘qotib, jamoaviy parallel fikrlashni ta’minlaydi.

## **Amaliy metodlar**

**“Suratdagi tasvirni jonlantir”** tasavvurni va aqlni ishga soluvchi qiziqarli metod. O‘quvchilar turli rasmlarga qarab voqea va hodisalarni og‘zaki ifodalaydilar.



Bu jarayon ularning tafakkurini boyitib, nutq ravonligini oshiradi, tafakkurni charxlaydi.

“**Kim shoir**” qalblarni ilhomga chorlovchi ijod olamiga shung‘ituvchi mashg‘ulot. O‘quvchilarga mashhur she‘rlardan parchalar beriladi va ular ushbu misralarni davom ettirib, o‘z iste‘dodlarini namoyon etadilar. Bu jarayon nafaqat yozma nutqni boyitadi, balki yangi ijodkorlarni kashf etishga ham imkon yaratadi.

“**Mantiqni ishlat**” fikrlarni jamlovchi metod. O‘quvchilar berilgan gaplarni izchil davom ettirib, o‘z bilimi va nutqini namoyon etadilar. Bu holat ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini yanada mustahkamlaydi.

“**Tilsiz sarlavha**” fan o‘qituvchisi tomonidan yer yuzidagi eng dolzarb global muammolardan kelib chiqib maxsus sarlavhalar ko‘rsatiladi. Mavzudan chetlashmagan holda gaplar tuzish va sintaktik tahlil qilish kerak bo‘ladi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat savodxonligini, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Zamonaviy metodlarni dars jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxs sifatida shakllantirish mumkin.

## **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. To‘xtasinov, N. Ijodiy fikrlash va metodika. – Toshkent: 2019.
2. Boyqarayeva, N. O‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish yo‘llari // Journal of Universal Science Research. – Toshkent, 2024.
3. Buzan, T. Mind Maps for Kids: An Introduction – The Shortcut to Success at School. – Thorsons, 2003.
4. De Bono, E. Six Thinking Hats. – 1985.
5. Samarali ta‘lim va barqaror innovatsiyalar jurnali materiallari. – 2024.